# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-iyul holatiga)**

**Ro'yxatdan o'tgan**

**40,6 ming.**

2019-yilning 1-iyul holatiga 40,6 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,3 mingtaga yoki 22,1 foizga o'sgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan**

**35,1 ming.**

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5,6 mingta (18,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 35,1 mingtani tashkil etgan.

**Yangi tashkil etilganlar**

**5,4 ming.**

2019-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida 5,4 mingtadan oshiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 mingtaga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# 2019-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tahlili. birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)






2019-yilning yanvar-iyun oylarida 5413 ta yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni asosiy qismi mas‘uliyati cheklangan jamiyat va xususiy korxonalarga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa oilaviy korxona hamda boshqa tashkiliy-huquqiy shaklarga to’g'ri keladi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-iyul holatiga)**




2019-yilning 1-iyul holatiga 40,6 mingta korxonalar va tashkilotlar ro’yxatdan o’tgan bo’lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,1 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha jamiga nisbatan 24,0 % - savdo, 19,3 % - sanoat, 10,7 % - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 8,1 % - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 7,5 % - qurilish, 3,5 % - tashish va saqlash, 1,5 % - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % - axborot va aloqa hamda 23,9 % - boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (9753 ta) savdo, (7838 ta) sanoat, (4333 ta) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, (3275 ta) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, (3024 ta) qurilish, (1452 ta) tashish va saqlash, (633 ta) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (563 ta) axborot va aloqa hamda (9714 ta) boshqa faoliyat turlariga to`g`ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 35,1 mingtani tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5,6 mingta (18,8 %) ga o’sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



# Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni hududlar kesimida, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko’p Zangiota (3848 ta), Qibray (3276 ta) va Toshkent (2413 ta) tumanlari hamda Angren (2173 ta), Chirchiq (2049 ta) shaharlar hissasiga to’g'ri keladi. Aksincha Ohangaron (834 ta), Oqqo'rg'on (885 ta), Piskent (946 ta), Chinoz (955 ta) tumanlari hamda Ohangaron (831 ta) va Nurafshon (919 ta), shaharlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## 2019-yil yanvar-iyun oylarida 5413 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2534 taga ko'pdir.



2019-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

**Savdo**
36,5 %

**Sanoat**
21,4 %

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**
9,8 %

**Qurilish**
9,6 %

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**
7,9 %

**Tashish va saqlash**
3,8 %

**Axborot va aloqa**
0,9 %

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**
0,9%

**Boshqa turlari**
9,2 %

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1974 ta), sanoat (1160 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (528 ta) va qurilish (517 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (49 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (51 ta) hamda tashish va saqlash (204 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | |
|---|---|
| Savdo | 1974 |
| Sanoat | 1160 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 528 |
| Qurilish | 517 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 428 |
| Tashish va saqlash | 204 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 51 |
| Axborot va aloqa | 49 |
| Boshqa turlari | 502 |

# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

## (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Zangiota (797 ta), Qibray (444 ta), Toshkent (363 ta) tumanlari va Angren (377 ta) shahri hissasiga to'gri keladi. Aksincha, Ohangaron (106 ta), Piskent (111 ta), Quyichirchiq (137 ta) tumanlari hamda Ohangaron (95 ta) shahrida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2017-2019-yillarning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**




Korxonalar soning o'sishi, birlikda

# TIJORAT KORXONALARI

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 29,6 mingtani tashkil qildi**

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy korxona




Unitar korxona




Aksiyadorlik jamiyati




Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 987 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 292 taga yoki 42,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

**(1-iyul holatiga)**




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi Xitoy Xalq Respublikasiga - 26,1 %, Rossiya Federatsiyasiga - 14,4 %, Turkiya Respublikasiga - 11,6 %, Qozog'iston Respublikasiga - 9,3 % va Janubiy Koreya Respublikasiga - 7,7 % to'g'ri keladi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda






## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 538 tasi qo'shma, 449 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.**






## Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Zangiota 133 ta (jamidagi ulushi 13,5 %), Qibray 102 ta (10,3 %), Yuqorichirchiq 78 tani (7,9 %), Toshkent tumanlarida 66 ta (6,7 %) va Angren 73 ta (7,4 %), Chirchiq shaharlarida 67 ta (6,8 %) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'ka 7 ta (0,7 %), Bekobod 8 ta (0,8%), Oqqo'rg'on 9 ta (0,9 %), Piskent 14 ta (1,4 %) va Chinoz tumanlarida 15 ta (1,5 %) hamda Bekobod shahrida 15 ta (1,5%) tashkil etgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Ko’rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish hamda axborot va aloqaga to’g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar






2019-yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 150 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 49 taga ko'paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 47 ta, Rossiya Federatsiyasi-25 ta, Turkiya Respublikasi-16 ta, Qozog'iston Respublikasi - 17 ta va Koreya Respublikasi – 13 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

| | |
|---|---|
| Sanoat | 82 |
| Savdo | 28 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 13 |
| Qurilish | 11 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 2 |
| Tashish va saqlash | 2 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1 |
| Boshqa turlar | 11 |

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 82 ta, savdoda 28 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 13 ta hamda 11 tadan qurilish va boshqa faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda

2019 yil 1 iyul holatiga




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining yillar kesimida o'sish dinamikasi, birlikda



# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda




2019-yil 1-iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 29,3 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 21,9 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-iyun oylarida 5,2 mingdan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2 barobarga ko'paygan.

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi 2019 yil 1 iyul holatiga

| • Eng katta ulushi | | • Eng kichik ulushi | |
|---|---|---|---|
| Zangiota tumani | 11,6 % | Piskent tumani | 2,6 % |
| Qibray tumani | 9,5 % | Nurafshon shahri | 2,5 % |
| Toshkent tumani | 7,3 % | Chinoz tumani | 2,5 % |
| Angren shahri | 6,2 % | Ohangaron shahri | 2,4 % |
| Chirchiq shahri | 5,8 % | Oqqo'rg'on tumani | 2,4 % |
| O'rtachirchiq tumani | 5,5 % | Ohangaron tumani | 2,2 % |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 29,3 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 8,1 mingta (27,8 %) – savdo, 6,7 mingta (22,8 %) - sanoat, 3,6 mingta (12,4 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 2,7 mingta (9,1 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 2,5 mingta (8,7 %) - qurilish, 1,2 mingta (4,2 %) - tashish va saqlash, 0,5 mingta (1,6 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,4 mingta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 3,5 mingtasi (12,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**

**10,1**



**Sanoat**

**22,2**



**Qurilish**

**9,9**



**Savdo**

**37,7**



**Tashish va saqlash**

**3,9**



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**8,2**



**Axborot va aloqa**

**0,9**



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**

**1,0**



**Boshqa turlari**

**6,1**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko’p savdo 1973 ta, sanoat 1160 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 526 ta va qurilish 517 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada 49 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko’rsatishda 50 ta hamda tashish va saqlashda 204 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Zangiota (782 ta), Qibray (432 ta), Toshkent (360 ta) tumanlari va Angren (367 ta) shahri hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (99 ta), Ohangaron (103 ta), Quyichirchiq (134 ta), Oqqo'rg'on (145 ta) tumanlari hamda Ohangaron (88 ta), Nurafshon (133 ta) va Yangiyo'l (143 ta) shaharlarida tashkil etilgan.




# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-iyul holatiga )







## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-iyul holatiga



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,8 % yoki 791 tasi sanoat, 20,8 % yoki 435 tasi savdo, 20,6 % yoki 430 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,1 % yoki 254 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,1 % yoki 22 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,5 % yoki 11 tasi qurilish, 0,4 % yoki 8 tasi axborot va aloqa hamda 6,1 % yoki 128 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




**Toshkent viloyati statistika boshqarmasi**
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i**
**Xasan Igamberdiyev**
**Tel.:71-230-86-84**